



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA KONVERGENSIYA JARAYONI: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Aqnazarova Saltanat¹

O'zbekistondan jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

KEYWORDS

Konvergensiya, OAV, raqamli media, O'zbekiston jurnalistikasi, multimedia content.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida konvergensiya jarayonining hozirgi holati, mavjud imkoniyatlar, duch kelinayotgan muammolar va istiqboldagi yo'nalishlar tahlil etiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida OAV faoliyatining ko'p formatli (matn, audio, video) axborot yetkazishga moslashuvi, tahririylararo hamkorlik va kontent ishlab chiqarish texnologiyalaridagi o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, jurnalislarning malakasini oshirish, texnik infratuzilmani takomillashtirish va qonunchilik bazasini yangilash zarurati ham alohida e'tiborga olinadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15637792](https://doi.org/10.5281/zenodo.15637792)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish

Axborot texnologiyalarining global sur'atda rivojlanishi jurnalistikani an'anaviy formatlardan voz kechishga majbur qilmoqda. Yangi sharoitlarda axborot nafaqat tez, balki ko'p formatda, ko'p platformada taqdim etilishi kerak bo'lmoqda [1]. O'zbekistonda ham jurnalistika sohasida boshlangan raqamli transformatsiya jarayoni konvergent jurnalistika modelini joriy etishni talab qilmoqda [2]. Bu jarayon nafaqat texnologik, balki tahririylar, kasbiy va kontent darajasida ham o'z ifodasini topmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida konvergensiya qanday kechayotganligi, uni shakllantiruvchi omillar, mavjud muammolar va istiqbollari ilmiy tahlil etiladi.

O'zbekiston OAVlarida konvergent formatga o'tish bosqichlari

O'zbekiston OAV tizimi uzoq yillar davomida an'anaviy model — gazeta, radio va televideniye asoslangan edi. Ammo 2017-yildan boshlab mamlakatda ochiqlik siyosati kuchayishi, internet infratuzilmasining rivojlanishi va yosh auditoriyaning axborot iste'moli

¹ O'zbekistondan jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

o'zgarishi bilan bir qatorda yangi OAV formatlariga ehtiyoj paydo bo'ldi [3].

Bugungi kunda:

"Xalq so'zi" gazetasi o'z veb-saytiga ega bo'lib, maqolalarni ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qiladi; "O'zbekiston 24" kanali yangiliklar videolarini YouTube va Telegram orqali tarqatadi; Mustaqil portallar — Kun.uz, Daryo.uz, Gazeta.uz — kontentni matn, foto, video, infografika shaklida taqdim etadi [4].

Bu esa O'zbekiston jurnalistikasi konvergent model tomon harakat qilayotganidan dalolat beradi.

Konvergent jurnalistikaning milliy shakli va yo'nalishlari

Milliy OAV tajribasida quyidagi konvergensiya turlari kuzatilmoqda:

Texnologik konvergensiya: Teleradiokanallar va bosma nashrlar internetga moslashtirilgan.

Tashkiliy konvergensiya: Ko'plab tahririylatlarda matn va video bo'limlari yagona axborot bazasida ishlamoqda.

Funktional konvergensiya: Jurnalistlar bir vaqtning o'zida maqola yozadi, suratga oladi, videoni montaj qiladi [5].

Masalan, Kun.uz muxbirli bir vaqtning o'zida matnli reportaj, fotoreportaj va videointervyu tayyorlaydi. Bu O'zbekistonda universallahgan jurnalist modeling shakllanayotganini ko'rsatadi [6].

Konvergensiyanı shakllantiruvchi omillar

Quyidagi omillar O'zbekistonda konvergent jurnalistikaning shakllanishini rag'batlantirmoqda:

Internet foydalanuvchilarining ortishi: 2024-yil holatiga ko'ra, 26 milliondan ortiq faol foydalanuvchi mavjud [7].

Smartfonlar orqali yangilik iste'moli: 75% foydalanuvchilar yangiliklarni mobil qurilmada o'qiydi [8].

Ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati: Telegram, Instagram, YouTube OAVlar uchun asosiy distribyutsiya kanallari bo'lib qolmoqda.

Ta'liddagi raqamli yondashuv: Jurnalistika fakultetlarida "Multimedia jurnalistikasi", "Raqamli kommunikatsiya", "Media marketing" kabi yo'nalishlar joriy qilinmoqda [9].

Asosiy muammolar va cheklolvar

Konvergent jurnalistikaga o'tishda bir qator tizimli muammolar mavjud:

Mutaxassislarning ko'p funksiyali emasligi: Ko'p jurnalistlar faqat yozma material yaratishda tajribali, video yoki dizayn bilan ishslashda qynaladi [10].

Tahririylatlarda texnik infratuzilmaning sustligi: Kameralar, montaj dasturlari va serverlar ko'plab tahririylatlarda yetarli emas.

Samarali integratsiya yo'qligi: Tahririylar ichida matn va video bo'limlari bir-biri bilan aloqa qilmaydi, natijada kontent uyg'unlashmaydi [11].

Axborot erkinligidagi cheklolvar: Hozirgi sharoitda ayrim dolzarb mavzular bo'yicha mustaqil reportajlar tayyorlash mumkin emas, bu esa interaktiv kontentni cheklaydi [12].

Kelajak istiqbollari va tavsiyalar

O'zbek jurnalistikasi konvergent model sari asta-sekin harakat qilmoqda. Quyidagi yo'nalishlar istiqbolli deb baholanmoqda:

Media startaplar paydo bo'lmoqda: Blogerlar, videopodkastchilar va mustaqil axborot platformalari ommalashmoqda.

AI asosida kontent ishlab chiqarish: Matnli xabarlar avtomatlashtirilgan dasturlar yordamida ishlab chiqilmoqda (masalan, sport natijalari, valyuta kurslari).

Raqamli redaksiyalar kengaymoqda: Ayrim tahririyatlar to'liq onlayn faoliyatga o'tmoqda.

Universallahgan jurnalistlar yetishmoqda: Yosh jurnalistlar bir nechta soha bo'yicha bilimga ega bo'lishga intilmoqda [13].

Xulosa

O'zbekiston jurnalistikasi konvergent modelga o'tish yo'lida. Bu jarayonni tezlashtiruvchi omillar — texnologik taraqqiyot, auditoriyaning o'zgarayotgan xatti-harakatlari va raqamli ta'lim strategiyalari. Shu bilan birga, tizimli muammolar — texnik, kadr va tashkiliy jihatlar — bartaraf etilmas ekan, konvergent jurnalistikani to'liq joriy qilish qiyin bo'ladi. Ammo ijobjiy harakatlar shuni ko'rsatmoqdaki, yaqin yillarda O'zbekiston OAVlari global jurnalistik standartlarga moslashishga tayyorlanmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Jenkins, H. (2006). Convergence Culture. NYU Press.
2. Mullaeva, C. (2022). Konvergent jurnalistikada yangi axborot uzatish usullari. UZA.
3. Komilova, Sh. (2016). Multimedia materiali — konvergent faoliyat mahsuli. Hurriyat gazetasi.
4. MJDC. (2023). Zamonaviy jurnalistika kurslari: tahlil va natijalar. mjdc.uz
5. Quinn, S. (2005). Convergent Journalism. Peter Lang.
6. Daryo.uz, Kun.uz va Gazeta.uz kontent tahlili, 2024.
7. O'zbekiston Statistika Agentligi: Internet foydalanuvchilari, 2024.
8. Digital 2024: Uzbekistan — Hootsuite & DataReportal hisobotlari.
9. O'zMU Jurnalistika fakulteti dars dasturlari (2023/2024).
10. Akbarov, U. (2020). O'zbek jurnalistikasida raqamli transformatsiya.
11. Raqamli OAV monitoringi bo'yicha MJDC hisobotlari (2023).
12. Internews Uzbekistan tahlillari, 2022.
13. Reuters Institute Digital News Report (2023).